GLOBAL IQTISODIY BARQARORLIK

Omanova Barchinoy Otabek qizi
Qarshi davlat texnika universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 4-bosqich talabasi
E-mail: omanovabarchinoy0@gmail.com
+99890-878-61-26
Meylikov Fazliddin Abduhalim o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti assistent o'qituvchisi
E-mail: meylikovf@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6041-5755
+99891-218-19-91
Valiev Oybek Shukhrat o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0005-1573-938X
E-mail: oybekjon.valiev@gmail.com
+99888-801-70-20
https://doi.org/10.5281/zenodo.18713087

Annotatsiya: Ushbu maqola global iqtisodiy barqarorlikning zamonaviy holatini tahlil qiladi va ularning ta'sirini shakllantiruvchi asosiy omillarni ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqolada global iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillari — texnologik inqilob, raqamli iqtisodiyot, barqaror energetika va xalqaro savdo kabi faktorlar tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, kelajakda glabal iqtisodiy barqarorlikning istiqbollari va ushbu o'sish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar, jumladan, yashil iqtisodiyot va texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, global iqtisodiy o'sish, texnologik inqilob, inflyatsiya, iqlim o'zgarishi, xalqaro savdo, yashil iqtisodiyot.

Hozirgi kunda butun dunyo olimlari uchun hozirgi zamon globalashuv nazariyalarini o'rganish, tahlil qilish va shu asosda strategiyani belgilash masalalari asosiy vazifalaridan bo_lib qolmoqda. Shu sababli Global iqtisodiy rivojlanishni o'rgatilishi dolzarb ahamiyatga ega. Ana shundan kelib chiqib ushbu masalalarni samarali hal qilish ko'p jihatdan iqtisodchilarning Global iqtisodiy rivojlanish, g'oyalar va ularning o'ziga xos hususiyatlarini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ushbu muammolar va hayotning o'zi oldimizga qo'ygan murakkkab vazifalarni tezroq hal qilish, ularning echimini izlab topish, ko'p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari, ziddiyatli va chalkash xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan strategik dasturlar mazmunini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir. O'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir.

O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy rivojlanishning muhim bir jihatlaridan biri ochiq iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo’lgan siyosiy, huquqiy va tashkiliy masalalarni xal qilish va global iqtisodiyotdagi xizmatlar sohasi bilan keng qamrovli aloqalarni rivojlantirish va chuqurlashtirishdan iborat. Global hamkorlik, Xalqaro savdo va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatlar o’rtasida o’zaro bog’liqlik kuchayib borayotgan davrda global barqarorligini ta’minlash iqtisodiy o’sish va farovonlik uchun muhim ahamiyatga ega. Global barqarorlikka erishish uchun tizimli xatarlarni yumshatish va inklyuziv rivojlanishni rag’bat1antirish uchun muvofiqlashtirilgan siyosat choralari, mustahkam me’yoriy-huquqiy bazalar va samarali xalqaro hamkorlik zarur. Global barqarorlikka makroiqtisodiy sharoitlar, me’yoriy-huquqiy bazalar, bozor dinamikasi va geosiyosiy risklar kabi ko’plab omillar ta’sir ko’rsatadi.

Global iqtisodiy barqarorlik – bu zamonaviy dunyo iqtisodiyotining eng muhim masalalaridan biri bo‘lib, har bir davlat va mintaqa rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Glabal barqarorlik deganda davlat ichidagi glabal jarayonlarning muvozanatli rivojlanishi va tashqi iqtisodiy ta’sirlarga chidamli bo‘lishi tushuniladi. Bu barqarorlikni ta’minlash milliy iqtisodiy siyosatdan tashqari, global miqyosdagi hamkorlik va siyosiy-iqtisodiy strategiyalarga ham bog‘liq. Hozirgi davrda global barqarorlikning asosiy drayverlari sifatida texnologik taraqqiyot, xalqaro savdo va investitsiyalar, hamda inson kapitali rivoji alohida e’tirof etilmoqda.

Texnologiyalar rivojlanishi, jumladan sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va ekologik toza texnologiyalarning rivoji dunyo iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga xizmat qilmoqda. Biroq, bu jarayonlar iqlim o‘zgarishi, global pandemiyalar va geosiyosiy mojarolar kabi salbiy omillar bilan to‘qnash kelmoqda.Jahondagi so‘nggi iqtisodiy ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun faol investitsiyalar va yashil texnologiyalarga katta mablag‘ yo‘naltirmoqda. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi davlatlari 2030-yilgacha uglerod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish uchun iqtisodiy tizimlarini qayta tashkil etmoqda. Xitoy va Hindiston esa global iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlari bo‘lib, ulardagi ishlab chiqarish va xizmatlar sektori tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu davlatlarda kambag‘allik darajasi, iqtisodiy tengsizlik, va ijtimoiy infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi iqtisodiy o‘sishni susaytiradi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi tashkilotlar ushbu davlatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda. Global iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar quyidagi yo‘nalishlarda harakat qilishlari lozim:

1. Innovatsiyalarni rivojlantirish va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish.
2. Yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikni ta’minlash.
3. Xalqaro savdo va investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali global integratsiyani kuchaytirish.
4. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga e’tiborni oshirish.

Shu bilan birga, iqtisodiy siyosatda uzoq muddatli strategiyalarga e'tibor qaratish muhimdir. Faqat qisqa muddatli inqirozlarni bartaraf etish emas, balki iqtisodiy tizimni mustahkamlash va tashqi ta'sirlarga chidamli bo'lishni ta'minlash kelajak uchun zaruriy omillardir.

Xalqaro miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun 2008-yildagi kabi inqirozlarni oldini olish, moliyaviy innovatsiyalarni boshqarish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi. Bugun jahon iqtisodiyoti geoiqtisodiy ziddiyatlar, savdo urushlari, texnologik sakrashlar va demografik bosim sharoitida yangi muvozanat izlayotgan bir paytda, moliya tizimlarining barqarorligi va davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligi birinchi darajali masalaga aylanmoqda. Ana shunday sharoitda ilmiy tahlil, xalqaro tajriba va amaliy muloqotga asoslangan maydonlar ayni zaruratdir.

Xorijiy universitetlar va konsalting tashkilotlari vakillari tomonidan sun'iy intellekt sharoitida raqamli tadbirkorlikning yangi modeli, global ta'minot zanjirlarida ishonch va institutsional barqarorlik, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yetakchilik va innovatsiya salohiyati, demografik inqirozning uzoq muddatli iqtisodiy oqibatlari kabi yo'nalishlarda tahliliy ma'ruzalar taqdim etildi.

Mazkur mavzular shunchaki nazariy bahs emas, ular davlatning iqtisodiy siyosati, xususiy sektor faoliyati va inson kapitali rivoji uchun bevosita ahamiyat kasb etadi. Xususan, Koreya Respublikasi tajribasi misolida demografik muammolar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinishi O'zbekiston uchun ham muhim xulosalarni taqdim etadi. "Barqaror moliyaviy tizimlarni shakllantirish: global savdo urushlaridan barqaror va inklyuziv moliyaga qadar" mavzusida o'tkazilayotgan keng ko'lamli ilmiy muloqotlar doirasida tashkil etilib, moliya tizimlarini global xavf-xatarlar sharoitida qanday barqaror saqlash mumkinligi haqida amaliy va ilmiy yondashuvlarni taklif etgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Global barqarorlik intilish siyosatchilar, tartibga soluvchilar va bozor ishtirokchilaridan tizimli zaifliklarni bartaraf etish va barqarorlikni oshirish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Siyosatchilar o'zlarining siyosat maqsadlarida moliyaviy barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yishlari, tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirishlari va transchegaraviy xavflami bartaraf etish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirishlari kerak. Regulyatorlar risklarni boshqarishda istiqbolli yondashuvni qo'l1ashlari, texnologik innovatsiyalardan foydalanishlari va yuzaga kelayotgan xavflarni aniqlash va yumshatish uchun nazorat amaliyotini kuchaytirishlari kerak. Bozor ishtirokchilari noaniqlik va barqororlikni rag'batlantirish uchun risklarni boshqarishga ustuvor ahamiyat berishlari, mustahkam boshqaruv tizimini saqlab qolishlari va rivojlanayotgan bozor dinamikasiga moslashishlari kerak. Global barqarorlik murakkab va dinamik muammo bo'lib, tizimli xavf va zaifliklarni bartaraf etish uchun muvofiqlashtirilgan va ko'p tomonlama yondashuvni talab qiladi. Beqarorlikning asosiy sabablarini tushunish, samarali tartibga solish islohotlarini amalga oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali siyosatchilar, tartibga soluvchilar va bozor ishtirokchilari iqtisodiy o'sish va farovonlikni qo'llabquvvatlovchi yanada mustahkam va barqaror moliyaviy tizimni rivojlantirishlari mumkin. Biroq, hushyorlik juda muhim, chunki bir-biriga bog'langan va tez rivojlanayotgan global iqtisodiyotda yangi xavf va noaniqliklar paydo bo'lishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy barqarorlik va global iqtisodiy o‘sish bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar bo‘lib, ular faqat davlatlarning faol ishtiroki va xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilishi mumkin. Biroq, tartibga solish islohotlari va siyosat aralashuviga qaramay, texnologik buzilishlar, iqlim o’zgarishi va geosiyosiy keskinliklar kabi yuzaga keladigan xavflar tufayli zaifliklar saqlanib qolmoqda. Bugungi mamlakatlar o’rtasida o’zaro bog’liqlik kuchayib borayotgan davrda global barqarorligini ta’minlash iqtisodiy o’sish va farovonlik uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shavkat Mirziyoyev.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so’zi, 2017 yil 16 yanvar.
2. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev SH.X. Jahon iqtisodiyoti va
3. xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
4. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. “Global Iqtisodiyot” (O’quv qo’llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –b.
5. Xodiev B.YU., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.:-Barkamol fayz media, 2018. – 783 b.
6. Глобализация мирового хозяйства: Учеб. пособие / Под ред. д-ра экон. наук, проф. М.Н. Осьмовой, канд. экон. наук, доц. А.В. Бойченко. - М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.